"Moliyachi ma'lumotnomasi" byulleteni
Byulleten "Справочник финансового работника"

**OBUNA SHARTNOMASI № 300034**

20~~23~~ -yil "~~23~~" ~~dekabr~~ Toshkent shahri

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Moliya organlari hamda budjet tashkilotlarining moliya-hisob bo'linmalari xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash O'quv markazi (keyingi o'rinlarda "Tahririyat" deb yuritiladi) nomidan direktor I.G. Xamidova bir tomondan va SDVU (keyingi o'rinlarda – "Obunachi") nomidan nizom asosida ish olib boruvchi X.B.Yunusov ikkinchi tomondan (birgalikda Taraflar) ular ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

## I. SHARTNOMA MAZMUNI

**1.1** Mazkur shartnoma bo'yicha "Tahririyat" quyida ko'rsatilgan "Moliyachi ma'lumotnomasi"/"Справочник финансового работника" oylik byulletenini (keyingi o'rinlarda–nashr) 2024-yil davomida davriyligi belgilangan muddatlarda nashrga tayyorlash, chop etish va yetkazib berish, Obunachi esa yetkazib berilgan nashrni qabul qilish, uning belgilangan obuna narxi bo'yicha pul mablag'ini oldindan to'lash majburiyatini zimmasiga oladi:

## II. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

**2.1. "Tahririyat"ning huquq va majburiyatlari:**

- nashr uchun obuna puli oldindan 100 foiz to'lanishini talab qilish va obuna puli oldindan to'lanmagan nashrni yetkazib bermaslik, yetkazib berilgan obuna nashrlarini qabul qilib olish asossiz rad etilishi natijasida yetkazilgan zarar qoplanishini "Obunachi"dan talab qilish huquqiga ega;
- buyurtma asosida chop etilgan nashrni shartnomada ko'rsatilgan manzilga pochta bo'linmalari orqali yetkazib berish majburiyatini o'z zimmasiga oladi;
- yetkazib berilgan nashr haqiqatdagi obuna soniga nisbatan kam chiqqan hollarda kamomadni "Obunachi" foydasiga ijobiy hal qilib beradi;
- "Obunachi" to'lovni 2023-yil 31-dekabrdan so'ng amalga oshirgan holatlarda, nashr sonlarini keyingi oydan boshlab yetkazib beradi;
- nashr sonlari yetkazib berilganligi haqidagi hisobvaraq-fakturani elektron tarzda yuboradi;
- obuna to'lovidan qoldiq mablag'ni kelasi yil obuna mavsumida belgilangan tartibda hisobga olish yoki "Obunachi"ga qaytaradi.
- shartnoma shartlari bajarilish vaqtida "Obunachi" tugatilgan yoki bohqa tashkilotlar bilan birlashtirilgan hollarda nashr merosxo'r tashkilotga etkazib beriladi;

**2.2. "Obunachi"ning huquq va majburiyatlari:**

- nashrlar o'z vaqtida yetkazib berilishini, yetkazib beriladigan nashrning obuna soni to'liqligini "Tahririyat"dan talab qilish, shartnoma shartlari bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi natijasida yetkazilgan zarar qoplanishini "Tahririyat"dan talab qilish huquqiga ega;
- "Obunachi" obuna summasining 100 foizini "Tahririyat" hisob raqamiga oldindan to'laydi;
- "Tahririyat" tomonidan taqdim etilgan obuna hujjatlarini rasmiylashtirib, tahririyatga taalluqli nusxalarni qaytarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi;
- "Obunachi" shartnomada va to'lov hujjatlarida o'z manzilini (pochta indeksi, tumani, ko'chasi, mahalla nomi) aniq va to'liq ko'rsatishi shart;
- yetkazib berish manzili to'liq aniq ko'rsatilmagan hollarda nashr yetkazib beruvchilar tomonidan o'z vaqtida sifatli yetkazilishi uchun "Tahririyat" javobgar bo'lmaydi;
- nashrlarni yetkazib berish uchun ko'rsatilgan manzil va bank rekvizitlari o'zgargan taqdirda yangisi to'g'risida zudlik bilan "Tahririyat"ga xabar berishi;
- "Tahririyat" tomonidan elektron tarzda yuborilgan hisobvaraq-fakturalarni o'z vaqtida qabul qilish;

## III. NASHRNING OBUNA BAHOSI VA HISOB-KITOB QILISH TARTIBI

**3.1.** Nashrning 2024-yil uchun "Tahririyat" tomonidan belgilangan obuna bahosi pochta bo'linmalari orqali yetkazib berish sharti bilan quyidagicha:

| Nashr nomi | Chop etish tili | Bichimi | O'lchov birligi | Bir dona nashr narxi | Bir yillik nashrlar soni | O'n ikki sondan iborat bir yillik obuna narxi (so'mda) | Yillik obuna soni | Jami summasi QQSsiz |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| "Moliyachi ma'lumotnomasi" – "Справочник финансового работника" | *o'zbek/ rus* | *A4* | *dona* | *150 000* | *12* | *1 800 000* | 1 | 1800000 |

***Summa so'z bilan:*** Bir million sakkiz yuz ***QQSsiz***

**3.2.** Mazkur narx 2024-yilning 31-dekabriga qadar amal qiladi.

**3.3.** "Obunachi" mazkur shartnomaning 3.1.-bandida ko'rsatilgan to'lov summasini; budjetdan mablag' oluvchilar shartnoma G'aznachilik xizmati qo'mitasi bo'linmalarida ro'yxatga olingandan so'ng, xo'jalik yurituvch subyektlar shartnoma imzolanganidan so'ng 10 (o'n) kalendar kuni mobaynida "Tahririyat"ning Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G'aznachilik xizmati qo'mitasigidagi shaxsiy hisobvarag'iga oldindan 100 foiz miqdorida pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiradi.

## IV.TARAFLARNING JAVOBGARLIKLARI VA NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

**4.1.** Taraflar mazkur shartnoma bo'yicha o'z zimmalariga olgan majburiyatlarini bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun amaldagi qonunchilikka asosan javobgardirlar.

**4.2.** Ushbu shartnoma bo'yicha barcha tushinmovchilik va kelishmovchiliklar muzokara yo'li bilan hal etiladi, tushinmovchilik va kelishmovchiliklar muzokara yo'li bilan hal etishni imkoni bo'lmagan taqdirda amaldagi qonunchilikka binoan Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudi orqali hal etiladi.

**4.3.** Mazkur shartnomada ko'rsatilmagan boshqa holatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq hal etiladi.

## V. FORS-MAJOR

**5.1.** Mazkur shartnoma imzolangandan so'ng tomonlarga bog'liq bo'lmagan holda kelib chiqadigan, shuningdek, tomonlar oldindan ko'ra bilishi yoki oldini olishi mumkin bo'lmagan favqulotda holatlar (suv toshqini, zilzila, tabiiy ofatlar, Hukumatning Taraflar faoliyatiga doir ta'qiqlovchi qaror, qonun yoki farmoyishlari chiqishi, shuningdek, shartnoma Taraflarning o'zlariga bog'liq bo'lmagan tarzda majburiyatlarini bajara olmasliklari) fors-major holatlar sanaladi. Shartnoma shartlarining to'liq yoki qisman bajarilmasligi fors-major holati tufayli kelib chiqishi uzrli deb hisoblanadi.

**5.2.** Fors-major holatlari yuzaga kelgan taqdirda, shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati bunday holatlar va ularning oqibatlari amalda bo'lgan vaqtda mutanosib ravishda kechiktiriladi.

## VI. KORRUPSIYAGA QARSHI QO'SHIMCHA SHARTLAR

**6.1.** Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlar sodir qilmaslikka kelishib oladilar.

**6.2.** Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydilar.

**6.3.** Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosabatlar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishiga yo'l qo'yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va'da qilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki har qanday turdaagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (kelajakda bu turdagi harakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida taassurot qoldirilmaganligini) kafolatlaydi. Taraflar, ular tomonidan shartnoma doirasida jalb qilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi harakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko'radi.

**6.4.** Taraflar davlat xizmatchilari, siyosiy partiyalar, shuningdek o'zlarining ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan har qanday vaqt va shaklda quyidagi harakatlarni bevosita yoki bilvosita (shu jumladan, uchinchi shaxslar orqali)sodir etilishiga yo'l qo'ymaydi: a) nazorat qiluvchi organlardan litsenziya va ruxsatnomalar olish,soliq solish, bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish, sudda ish ko'rilishi, qonunchilik jarayoni va boshqa sohalarda qonunga xilof ravishda tijorat yoki boshqa tusdagi ustunlikka ega bo'lish yoki saqlab qolish maqsadida yuqoridagi shaxslar foydasiga yoki ular tomonidan moddiy yoki nomoddiy naf olishning taklif etilishi, va'da qilinishi, berilishiga; b) qonunga xilof ravishda olingan daromadlarning legallashtirilishiga, shuningdek, agar mulk jinoiy faoliyatdan olingan daromad ekanligi taraflarga ma'lum bo'lsa, uni o'tkazish, mulkka aylantirish, yoxud almashtirish yo'li bilan uning kelib chiqishiga qonuniy tus berish, bunday pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyatini, manbaini, turgan joyini tasarruf etish, ko'chirish usulini, pul mablag'lariga yoki boshqa mol-mulkka bo'lgan haqiqiy egalik huquqlarini yoki uning kimga qarashliligini yashirishga; v) korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir qilish uchun ta'magirlik qilish, undash, tazyiq o'tkazish yoki tahdid qilish. Ushbu holat bo'yicha bir taraf ikkinchi tarafini hamda vakolatli davlat organlarini darhol xabardor qilishi shart.

**6.5.** Taraflar tovarlar, ishlar va xizmatlarni realizatsiya qilish va o'tkazishda bitimlar tuzish bo'yicha muzokaralar olib borishda, litsenziya, ruxsatnomalar va boshqa ruxsat etish xususiyatiga ega bo'lgan hujjatlarni olishda yoki ularning manfaatlarini ko'zlab boshqa harakatlarni amalga oshiruvchi taraflarning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslarga (shu jumladan, yordamchi pudratchilar, agentlar, savdo vakillari, distribyutorlar, huquqshunoslar, hisobchilar, ular nomidan harakat qiluvchi boshqa vakillarlarga) nisbatan quyidaagi harakatlarni amalga oshirishlari shart: - korrupsiyaviy harakatlarga yo'l qo'yib bo'lmasligi va korrupsiyaviy harakatlarga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lishi shartligi haqida ko'rsatmalar va tushuntirishlar berish; - ulardan korrupsiyaviy harakatlarni amalga oshirish uchun vositachi sifatida foydalanmaslik; - ularni faqat taraflarning oddiy kundalik faoliyati jarayonidagi ishlab chiqarish zarurati doirasidan kelib chiqib ishga jalb qilish; - ularga qonunchilik doirasida amalga oshirgan xizmatlari uchun belgilangan haq miqdoridan asossiz ravishda ortiqcha to'lovlarni amalga oshirmaslik.

**6.6.** Taraflar ularning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslar tomonidan korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan majburiyatlar buzilganligi holatlari haqida xabar berilganligi uchun ularga tazyiq o'tkazilmasligini kafolatlaydilar.

**6.7.** Agar bir tarafga boshqa tarafning korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarning 6.4- va 6.5-bandlarida belgilangan majburiyatlarni buzilishiga yo'l qo'yilganligi ma'lum bo'lib qolsa, ikkinchi tarafni bu haqda zudlik bilan xabardor qilishi va ushbu tarafdan oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilishini va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan unga xabardor qilishini talab qilishi shart. Tarafning talabi bo'yicha ikkinchi taraf tomonidan qoidabuzarliklarni bartaraf qilish bo'yicha oqilona muddat ichida

tegishli choralar ko‘rilmagan yoki ko‘rib chiqish natijalari haqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf zararni to‘liq qoplab berishni talab qilishga haqli.

## VII. YAKUNIY QOIDALAR

**7.1.** Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo‘lgan ikki nusxada tuzildi, u imzo qo‘yilgan kundan e`tiboran kuchga kiradi va taraflar o‘z majburiyatlarini to‘la bajargunga qadar amalda bo‘ladi.

**7.2.** “Obunachi” budjet mablag‘laridan moliyalashtiriladigan bo‘lsa, ushbu shartnoma tomonlar o‘rtasida imzolanib, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G‘aznachilik xizmati qo‘mitasi bo‘linmalarida ro‘yxatga olingandan so‘ng kuchga kiradi va 2023-yil “31” dekabr gacha amal qiladi.

**7.3.** Mazkur shartnomaga barcha o‘zgartirish va qo‘shimchalar faqat taraflarning o‘zaro roziligi bilan yozma ravishda amalga oshiriladi va ikki tomonlama imzolanib, muhrlangandan so‘ng yuridik kuchga ega bo‘ladi.

**7.4.** Shartnoma amal qilish muddatining tugashi tomonlarni shartnoma shartlarini bajarish majburiyatidan ozod qilmaydi

## VIII. TARAFLARNING MANZIL VA REKVIZITLARI

**“TAHRIRIYAT”**

Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Moliya organlari hamda budjet tashkilotlarining moliya-hisob bo`linmalari xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash O`quv markazi
Yuridik va pochta manzili: Indeks 100052,
Toshkent sh., M. Ulug‘bek tumani,
Darxontepa 7-uy
Sh/h: 400110860262697096200222001
STIR 300529638 IFUT 85590
G’aznachilik:
h/r 23402000300100001010 Toshkent shahri Markaziy banki HKKMda STIR 201122919 Bank kodi 00014

**Tel.:** (8 371) 239-19-18
(8 371) 239-97-73
**Faks: (8 371) 239-97-99**
**E –mail:** info@tcmf.uz

Direktor ______ L.G. Xamidova
imzo

M.O‘.

Huquqshunos
I. Daminov

Лицензия TN № 001107
Адвокат Даминов И.Д.
TN № 000186 Мин. Юст. РУз

**“OBUNACHI”**

Yuridik manzili: ______

**Pochta manzili (yetkazib berish manzili):**
Indeks ______ viloyat
tuman (shahar) ______
ko‘cha ______
uy ______ xona (kab., ofis) ______
Tel. faks ______
Bank nomi ______
h/r ______
Bank kodi ______ IFUT ______ STIR ______

*Budjetdan mablag‘ oluvchi“OBUNACHI” quyidagilarni ham to`ldiradi:*

Shaxsiy hisobvarag‘i ______
G‘aznachilik bo`linmasining nomi ______
G‘aznachilik bo`linmasining STIR ______

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
Samarqand sh. M.Ulug’bek ko’chasi 77-uy
Tel./ Fax + (99866) 234-78-92, 234-76-86
SHx. 400910860184017094100250001
INN: 201878451, OKONX: 92110
Samarqand viloyati g’aznachilik boshq
H/v: 2340 2000 3001
Markaziy bank XKKM Toshkent sh
MFO: 00014 INN: 201122

Rahbar ______ K.B. Yunusov
imzo F.I.O

M.O‘.

Katta yuriskonsult
N. Eshmamatov

O'ZBEKISTON MATBUOT VA AXBOROT AGENTLIGI

OMMAVIY AXBOROT VOSITASI
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILGANLIGI TO'G'RISIDA

# GUVOHNOMA

№ 0809

Nomi "Молиячи маълумотномаси"-"Справочник финансового работника"

Tarqatish shakli бюллетень
(gazeta, jurnal va boshqalar)

Til(lar)i ўзбек, рус

Muassis(lar)i Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги ҳузуридаги молия органлари ходим...
бюджет ташкилотларининг молия-иқтисод бўлинмалари ходимларини тайёрлаш ва қайта тайёрлаш Ўқув маркази

Ixtisoslashuvi молия-иқтисодий ва илмий-амалий

Tahririyat manzili **100007, Тошкент шаҳри, Истиқлол кўчаси, 29-уй,**
**Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлигининг Ғазначилиги биноси**

Tarqatish hududi Республика бўйича

Berilgan sanasi 15.09.2011 йил

Ro'yxatdan o'tkazuvchi
organ rahbari B. Sh. ALIMOV

Ushbu guvohnoma «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq berilgan.

O'zbekiston Respublikasining ommaviy axborot vositalari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq jinoiy, ma'muriy, intizomiy va boshqa javobgarlikka sabab bo'ladi.

Davlat organlari va tashkilotlarining davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risida

# GUVOHNOMA

**"O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGI O'QUV MARKAZI" DAVLAT MUASSASASI**

Davlat organlari va tashkilotlarining nomi

**300 529 638**

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR)

## Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatga olish, axborotni o'zgartirish)

| | |
|---|---|
| **31.07.2007** | **003109-10** |
| Sana | Tasdiqlandi |

Tashkiliy-huquqiy shakli:

**DAVLAT MUASSASASI**

Tomonidan berilgan:

**YUNUSOBOD TUMANI DAVLAT XIZMATLARI MARKAZI**

VA MOLIYA VAZIRLIGI O'QUV MARKAZI

1105330